

VII «YIL BRENDI 2023» MUKOFOTINING REGLAMENTI

- 1. UMUMIY QOIDALAR**
- 2. ISHTIROKCHILAR UCHUN MUKOFOTNING AHAMIYATI**
- 3. ARIZALARNI TAQDIM ETISH QOIDALARI**
- 4. MUKOFOT BOSQICHLARI**
- 5. MUKOFOT TASHKILOTCHILARI**
- 6. EKSPERT HAY'ATI**
- 7. TAQDIM ETILADIGAN ARIZALARGA TALABLAR**
- 8. NOMINATSIYALAR**
- 9. HAY'AT VA ISTE'MOLCHILAR OVOZ BERISHINING TARTIBI**
- 10. OVOZ BERISH MEZONLARI**
- 11. SOVRINLAR**
- 12. KONTAKT AXBOROTI**

1. UMUMIY QOIDALAR

«Yil Brendi 2023» Mukofoti — O'zbekiston marketing uyushmasining 2024-yilda ettinchi bor o'tkazilayotgan har yilgi Mukofoti.

Mukofot bilan o'tgan yilda O'zbekiston bozorida eng samarali marketing yutuqlariga erishgan eng muvaffaqiyatli brendlari taqdirlanadilar.

"Yil brendi" mukofotining maqsadi – bu mahalliy bozorda muvaffaqiyatli ishlagan eng yaxshi marketing jamoalari va ekspertlarini aniqlash, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, tadbirkorlik sohasini, O'zbekiston marketing va reklama xizmatlari bozorining finratuzilmasini rivojlantirishdir.

Mukofot yakunlari O'zbekiston marketing uyushmasi talqiniga ko'ra Brendlar marketing samaradorligi jamlanma reytingida aks etadi:

<https://marketing.uz/novosti/rejtingi-kreativnosti-i-marketingovoij-effektivnosti-brendov-i-agentstv-uzbekistana-za-2021-god.htm>

2. MUKOFOTNING ISHTIROKCHILAR UCHUN AHAMIYATI

1. Iste'molchilarning ochiq xalqona ovoz berishida qatnashish imkoniyati (2023-yilda ovoz berish ishtirokchilari soni 500 000 kishidan oshgandi). Bugungi kunda mazkur har yilgi ovoz berish O'zbekistonda iste'molchilar sadoqati bo'yicha marketing tadqiqotining eng keng ko'lamli tarmoq vositasi sanaladi.
2. Uyushmaning 200 dan ziyod ekspertlari va hamkorlarining ovoz berishi.
3. Brend marketing yutuqlarini keng ommaga taqdim etish imkoniyati.
4. 2023-yilgi biznes-yutuqlarini keng iste'molchilar va ekspertlar auditoriyasi oldida qayd etish.
5. Brend marketing bo'yicha mutaxassislar rolini oshirish va ularning xizmatlari hamda mehnatlari natijasini e'tirof etish, brendning barcha biznes-jarayonlari uchun marketingning ahamiyatini ommalashtirish.
6. O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi va O'zbekiston marketing uyushmasidan iste'molchilar va ekspertlar e'tirofiga ko'ra "2023-yil brendi" maqomini olish imkoniyati.
7. "2023-yil brendi" maqomidan reklamada va ommaviy axborot vositalarida foydalanish imkoniyati.
8. Mukofot natijalarining har yilgi O'zbekiston brendlari va agentliklari marketing reytingiga qo'shilishi.

3. ARIZALARINI TAQDIM ETISH QOIDALARI

1. Mukofotda qatnashish uchun ariza topshirish tashabbuskori brendlari (yuridik shaxslar) bo'ladi.
2. Mukofotda qatnashish uchun www.marketing.uz saytida avtorizatsiyadan o'tish, arizadagi barcha kerakli satrlar: Mukofot kontakt ma'lumotlari, nominatsiya nomi, brend yoki brend mahsuloti nomi kabilarni to'ldirish va taqdimotni yuklash (pdf yoki YouTube`dagi videoga havola) taomilini bajarish kerak bo'ladi. Brend taqdimoti yuklanganidan keyin "Jo'natish" tugmasini bosib arizani jo'natish lozim. Tanlov tashkilotchisi ariza olingandan keyin 3 ish kuni ichida kelib tushgan arizaning Mukofot talablariga muvofiqligini tekshiradi, ishtirokchiga ishtirok uchun to'lovga shartnoma yo'llaydi. Ishtirok haqi to'langach, taqdimot www.marketing.uz saytida aks etadi, brend esa Mukofot ishtirokchisiga aylanadi.
3. Mukofotda qatnashish – pulli. Qatnashish narxi 1 568 000 so'm (QQS bilan birga). Xorijiy valyutada to'langanda MBning to'lov sanasidagi kursi bilan hisoblanadi.
4. Bitta ariza bir yoki bir nechta nominatsiyaga taqdim etilishi mumkin. Agar bir xil ariza ikki va undan ortiq nominatsiyaga taqdim etilsa, taqdim etilgan arizalar soni nominatsiyalar soniga tenglashtiriladi va ishtirokchi har bir nominatsiya uchun Reglamentning ushbu bo'limi 3-b.ga muvofiq haq to'laydi. Uchinchi va har bir keyingi ariza uchun 50% miqdorida chegirma taqdim etiladi.
5. O'zbekiston marketing uyushmasi hamkorlariga 50% miqdorida chegirma beriladi. Uyushmaning Premium hamkorlari uchun mukofotda qatnashish – bepul.
6. To'lov yuridik shaxslar o'rtaida shartnoma asosida bank o'tkazmasi orqali yoki Uzum, Payme to'lov tizimi orqali amalga oshiriladi.
7. Brendning bir yoki undan ziyod, brendga mos nominatsiyalarga taqdim etilgan taqdimoti ariza sifatida qabul qilinadi.
8. Faqat arizani belgilangan muddatgacha topshirin, qatnashish to'lovini to'lash kabi talablar bajarilganda, brend Mukofotda qatnashyapti, deb sanaladi.
9. Qatnashish to'lovi Mukofotda muvaffaqiyatli natijani kafolatlamaydi.
10. Mukofotda qatnashish ishtirokchi ushbu reglament bilan tanishib chiqqanligi va unga rozi ekanligini anglatadi. Qatnashish to'g'risidagi shartnoma rozilikning yozma tasdig'i sanaladi.

4. MUKOFOT BOSQICHLARI

Arizalarni qabul qilish va mukofotda qatnashish haqini to'lash muddati – 2024-yil 15-yanvardan 2024--yil 25-martgacha (shu kun ham kiradi).

Ekspert hay'ati va iste'molchilar ovoz berishi – 2024-yil 1-apreldan 2024-yil 1-maygacha. Mukofot natijalarini e'lon qilish – 2024-yil 18-19-maydag'i Taqdirlash marosimida.

5. Mukofot tashkilotchilari

Mukofot tashkilotchilari quyidagilar:

- O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi;
- O'zbekiston marketing uyushmasi.

6. MUKOFOTNING EKSPERT HAY'ATI

Mukofot hay'ati tarkibi O'zbekiston marketing uyushmasining hamkorlari, ekspertlari va ekspert-ustozlari – tegishlicha professional tajriba va yutuqlarga ega, marketing, reklama sohasining yetakchi mutaxasislaridan tashkil topadi.

Mukofot ekspert hay'ati:

1. www.marketing.uz saytida brendlар taqdimotlari bilan tanishadi;
2. Barcha nominatsiyalar bo'yicha Mukofot g'oliblarini aniqlaydi;
3. Mukofot g'oliblarini taqdirlash marosimida qatnashadi.

Ekspert hay'atining tarkibi bilan www.marketing.uz saytida tarnishing.

7. TAQDIM ETILADIGAN ARIZALARGA TALABLAR

1. Mukofotda qatnashishga ariza topshirish www.marketing.uz saytida amalga oshiriladi.
2. Ariza taqdimot (ko'pi bilan 10 ta slayd) yoki video rolik (2 daqiqagacha) ko'rinishida taqdim etilishi lozim.
3. Video rolik YouTube.com kanaliga yuklanishi va arizada unga havola berilishi lozim.
4. Iste'molchilarining o'zbek va rus tilida ovoz berishlari qulay bo'lishi uchun arizalar (brend taqdimoti va/yoki video rolik) bir vaqtning o'zida ikki tilda: o'zbek va rus tillarida qabul qilinadi.
5. Ekspertlar tomonidan g'oliblarni aniqlash natijalari 2023-yil 20-maydagi Mukofotlash marosimida e'lon qilinadi.
6. Ariza mazmuni. Brendning 2023-yildagi eng asosiy marketing yutuqlarining qisqacha va tushunarli tavsifi.

8. MUKOFOT NOMINATSIYALARI

- 1. Banklar, moliyaviy institutlar, sug'urta:** banklar, moliyaviy institutlar, lizing kompaniyalari, auditorlik kompaniyalari, kredit tashkilotlari.
- 2. Alkogolsiz ichimliklar:** qahva, choy, sut, sharbatlar, energetik ichimliklar, gazlangan va gazlanmagan suv.
- 3. Mehmonxonalar, restoranlar, qahvaxona, keyteringlar:** mehmonxonalar, restoranlar, qahvaxonalar, umumiy ovqatlanish nuqtalari, keytering xizmatlari.
- 4. Davlat, jamoat tashkilotlari va ijtimoiy loyihalar:** davlat, jamoat tashkilotlari va ijtimoiy loyihalar, xayriya.
- 5. Axborot texnologiyalari va yechimlar:** axborot texnologiyalar, IT-loyihalar, texnologik yechimlar, mobil ilovalar.
- 6. Klinikalar, tibbiyot xizmatlari:** tibbiyot markazlari, kosmetologik klinikalar, tibbiy texnika, profilaktika, diagnostika, davolash va reabilitatsiya, tibbiy xizmatlar.
- 7. Logistika, taksi va yetkazib berish xizmati:** logistik kompaniyalar, taksi xizmati, yetkazib berish xizmati.
- 8. Go'zallik industriya uchun tovarlar va xizmatlar, moda:** liboslar, poyabzal, sumkalar, taqinchoqlar, kosmetika, parfyumeriya, go'zallik salonlari, sartaroshlar, stilistlar, atelyelar xizmatlari.
- 9. Fan va ta'lim:** ilmiy loyihalar, ta'lim muassasalari, maktablar, OTM, rivojlanish dasturlari, rivojlantirish markazlari, til maktablari, bolalar lagerlari.
- 10. Ko'chmas mulk, qurilish va qurilish materiallari:** tijorat va turar joy ko'chmas mulki, qurilish, development, rietorlik, ko'chmas mulk bilan bog'liq mahsulot va xizmatlar, qurilish materiallari.
- Oziq-ovqat mahsulotlari:** oziq-ovqat mahsulotlari, ziravorlar, yarim tayyor mahsulotlar.
- 11. Professional konsultatsiya xizmatlari:** yuristlar, auditorlar, sotuvlar bo'yicha konsultantlar, marketologlar, psixologlar, motivatorlar.

- 12. Ko'ngil ochish, madaniyat va sport:** festivallar, konsertlar, kinoteatrlar, teatrlar, yarmarkalar, muzeylar, ko'rgazmalar, sport voqealari, parklar, SKM, sport klublari.
- 13. Chakana savdo:** chakana savdo tarmog'i, do'konlar, elektron tijorat, maishiy texnika va boshqa tovarlarni muddatli to'lovga sotuvchi do'konlar.
- 14. OAV, blogerlar, hamjamiyatlar, inflyuenserlar, trendsetterlar:** TV, elektron va bosma OAV, hamjamiyatlar, radiostansiyalar.
- 15. Telekommunikatsiyalar, internet:** mobil operatorlar, telekommunikatsiyalar, internet xizmatlari.
- 16. Uy va ofis uchun texnika:** audio va video, maishiy texnika, kompyuterlar, telefonlar, smartfonlar, planshetlar, "aqli uy" tizimi.
- 18. Gigiena uchun tovarlar, salomatlik, maishiy kimyo:** shaxsiy gigiena uchun tovarlar, maishiy kimyo, yuvish vositalari.
- 19. Uy va ofislarni bezash va parvarish qilish uchun tovarlar va xizmatlar:** mebel, interer predmetlari (yorug'lik, to'qimachilik, idish-tovoq, pardalar, gullar).
- 20. Bolalar uchun tovarlar va xizmatlar:** bolalar ozuqasi, kosmetika va gigiena vositalari, liboslar, o'yinchoqlar, oyoq kiyimlari, aravachalar, bolalar bayramlarini tashkil etish.
- 21. Transport:** transport vositalar (yengil va yuk avtomobillari, mototsikllar, boshqa transport vositalari), yondosh tovarlar (shina, moy, yuqilg'i, aksessuarlar).
- 22. Turizm va rekreatsiya uchun tovarlar va xizmatlar:** sayyohlik kompaniyalari, kurortlar, sanatoriylar, dam olish uylari va zonalari, mahsulotlar va xizmatlari, bronlash servislari, aviakassalar.
- 23. Farmatsevtik kompaniyalar va preparatlar:** farmatsevtik kompaniyalar va preparatlar. **Fitnes-xizmatlar, sog'lom ovqatlanish:** fitnes-klublar, sport zallari, vitaminlar, BFQ, energetik batonchalar, ichimliklar, fitnes-dasturlar, mashq lagerlari, sport va mashq jiozları.
- 24. Boshqa tovarlar va xizmatlar.**

10. HAY'AT VA ISTE'MOLCHILAR OVOZ BERISHINING TARTIBI

1. Ariza qabul qilish muddati yakunlanganidan keyin ovoz berish jarayonlari boshlanadi.
2. Arizani topshirishda brend qaysi ovoz berishda ishtirok etishini tanlashi mumkin. Faqat iste'molchi ovoz berishda, faqat ekspertlar hay'ati ovoz berishda yoki ikkala ovoz berishda ishtirok etishni tanlashi mumkin.
3. G'oliblar ekspertlar va iste'molchilar o'ttasida alohida ovoz berish natijalariga ko'ra tanlanadi.
4. **Ekspert hay'atining ovoz berishi:** ovoz berishda Mukofot ekspert hay'ati qatnashadi. Ovoz berish moderatori – "De Facto" marketing agentligi.
5. Shuningdek, Mukofotda maxsus sovrinlar ko'zda tutilgan, ularning sohiblarini ekspert hay'ati aniqlaydi.
6. **Iste'molchilar ovoz berishi:** Uzbrand telegram-botida iste'molchilar ochiq ovoz berishi orqali amalga oshiriladi, unda istalgan kishi qatnashib, brendlар uchun ovoz berishi mumkin.
7. Iste'molchilar ovoz berishining statistikasi real vaqt rejimida marketing.uz saytida aks etadi.
8. Barcha istovchilar Mukofot video roliklari yoki taqdimotlari bilan tanishish uchun marketing.uz saytidagi Mukofot bo'limiga o'tishlari mumkin.
9. Mukofot g'oliblari haqidagi axborot ular Taqdirlash marosimida rasman e'lon qilinganidan keyin marketing.uz saytida chop etiladi.
10. Mukofot tashkilotchilari OAV va internet-resurslarda Mukofotni yoritish uchun brendlarning har qanday taqdimotlaridan foydalanish (mualliflikni albatta ko'rsatgan holda) huquqiga ega.
11. Ovoz berish davomida brend uchun ovoz berishga chorlashga ruxsat beriladi. Sovrinlar, boshqa moddiy qimmatliklar yutib olishni va'da qilish, ovoz bergenlik uchun chegirmalar,

bonuslar berish bilan bog'liq chorlovlar yoki boshqa turdag'i faoliyat (giv, tanlov, o'yin va sh.k.)ga ruxsat berilmaydi.

12. Tashkilotchilar ovozlarni tekshirish va SIM-kartalarini almashtirgan foydalanuvchilar, bir nechta o'xshash yoki bir xil akkauntlarga (raqamli foydalanuvchi nomlari (481 482 va boshqalar)) bog'langan shubhali foydalanuvchilarning mavjudligini, bir xildan foydalanishni tekshirish huquqini o'zida saqlab qoladi. SIM-kartalari tekshirish vaqtida javob bermayotgan, qurilmalarda bo'limgan bunday foydalanuvchilar aniqlangan taqdirda, tashkilotchilar bunday ovozlarni iste'molchi ovoz berish natijalaridan olib tashlashga haqli.

11. OVOZ BERISH MEZONLARI

Ekspert hay'ati ovoz berishining mezonlari

1. O'tgan yilda oldinga qo'yilgan biznes-vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi.
2. Marketing vazifalarni amalga oshirishdagi professionalizm.
3. Brendni kuchaytirish va iste'molchilar sadoqatini kuchaytirishni baholash.

Iste'molchilar ovoz berishi mezonlari

1. Mashhurlik va iste'molchilarning shaxsiy tanlovi.
2. Brendning sadoqatli komyunitisiga mansublik.

12. MUKOFOT SOVRINLARI

1. Biror-bir nominatsiyada bir yo'nalishda faoliyat ko'rsatuvchi uch va undan ko'p brendlar qatnashadigan bo'lsa, ushbu yo'nalish alohida tub nominatsiyaga ajratiladi, unda umumiy asoslarda iste'molchilar tanlovi va ekspertlar tanloviga ko'ra eng ko'p ovoz to'plagan brendlar taqdirlanadi.
2. Nominatsiyalarda va tub nominatsiyalarda birinchi o'rinni olgan Mukofot ishtirokchilari Mukofot tashkilotchilari imzolagan g'oliblar diplomlari va "Yil brendi 2022" mukofoti haykalchalari bilan taqdirlanadi.
3. "O'zbekistonda marketing rivojiga qo'shgan hissasi uchun", "Yil shaxsi", "Yil kashfiyoti" maxsus sovrinlarini qo'lga kiritgan Mukofot ishtirokchilari Mukofot tashkilotchilari imzolagan g'oliblar diplomlari va "Yil brendi 2023" mukofoti haykalchalari bilan taqdirlanadi.
4. Biror-bir nominatsiyada bir yo'nalishda faoliyat ko'rsatuvchi uch va undan ko'p brendlar qatnashadigan bo'lsa, ushbu yo'nalish alohida tub nominatsiyaga ajratiladi, unda umumiy asoslarda iste'molchilar tanlovi va ekspertlar tanloviga ko'ra eng ko'p ovoz to'plagan brendlar taqdirlanadi.
5. Nominatsiyalar va tub nominatsiyalarda iste'molchilar tanlovi va ekspertlar tanloviga ko'ra 2 va 3- o'rnlarni olgan Mukofot ishtirokchilari haykalchalar va O'zbekiston marketing uyushmasi tomonidan imzolangan laureat diplomlariga ega bo'ladilar.
6. Mukofotning barcha ishtirokchilariga O'zbekiston marketing uyushmasi tomonidan imzolangan ishtirokchi diplomi beriladi.
7. Mukofot natijalari O'zbekiston marketing uyushmasi talqiniga ko'ra har yilgi Brendlar va agentliklar marketing samaradorligi reytingida hisobga olinadi. Maxsus nominatsiyalarda

Mukofot g'oliblari 10 ball oladilar, nominatsiyalarda va tub nominatsiyalardagi Mukofot g'oliblariga 9 ball beriladi, 2- o'rinni uchun – 5 ball, 3- o'rinni uchun – 3 ball beriladi.

8. Shuningdek, Mukofot g'oliblari bo'lgan brendlarning loyihalarini amalga oshirishda qatnashgan agentliklar ham tegishlicha ball oladilar. Bu ballar ham Uyushmaning har yilgi Brendlar va agentliklar marketing reytingida inobatga olinadi.
9. Ekspertlar va g'oliblar ovoz berishi natijalarini e'lon qilish 2024-yil 18-19-maydagi tantanali taqdirlash marosimida amalga oshiriladi. Marosimga kirish erkin. Marosimga qadar Mukofot g'oliblari to'g'risidagi axborot qat'iyan maxfiy bo'lib, oshkor etilmaydi.
10. Tashkilotchilar, hamkorlarning rasmiy murojaatiga ko'ra, ekspertlar hay'ati bilan kelishgan holda maxsus sovg'alar ko'rinishida qo'shimcha sovrinlar belgilash huquqiga ega.

13. KONTAKT AXBOROTI

O'zbekiston marketing uyushmasi
100007, Toshkent sh., M. Ulugbek ko'ch., 25

Tel.: +998 (97) 402-28-20, +998 (97) 430-28-20
e-mail: info@marketing.uz

sayt: <https://marketing.uz>

<https://t.me/uzbekmarketing>

https://instagram.com/uzbekmarketing?utm_medium=copy_link

<https://www.facebook.com/uzbekmarketing>

<https://www.youtube.com/c/MAKONMARKETINGUZ>